

KONSTITUTSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY YANGILANISHLAR

Ma'mura Aralova

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs A-potok 3-guruh talabasi

mamuraaralova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14277862>

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari, uning tarixi, huquqiy tizimlarga ta'siri va zamonaviy yangilanishlar jarayoni tahlil qilingan. Konstitutsiyaning mustaqillikdan keyingi va jahon tajribasidan kelib chiqib amalga oshirilgan o'zgarishlari o'rganilib, ularning jamiyat va davlat qurilishiga bo'lgan ta'siri yoritilgan. Maqolada zamonaviy demokratik tamoyillarni joriy etish va inson huquqlarini ta'minlashdagi konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqola davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, huquqiy tartibotni mustahkamlash va jamiyatning rivojlanishida konstitutsiyaviy yangilanishlarning o'rnini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, rivojlanish bosqichlari, huquqiy tizim, zamonaviy yangilanishlar, demokratik tamoyillar, inson huquqlari, konstitutsiyaviy islohotlar.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE CONSTITUTION AND MODERN UPDATES

Abstract. This article analyzes the stages of the constitution's development, its history, its impact on legal systems, and the process of modern renewal. Taking into account post-independence and global experience, the changes made to the Constitution were considered, and their impact on the construction of society and the state was highlighted. The study emphasizes the significance of constitutional reforms in implementing modern democratic principles and ensuring human rights. The article is dedicated to the study of the role of constitutional changes in improving the system of public administration, strengthening law and order, and the development of society.

Key words: Constitution, stages of development, legal system, modern updates, democratic principles, human rights, constitutional reforms.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОНСТИТУЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ОБНОВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются этапы развития конституции, ее история, влияние на правовые системы и процесс современных обновлений. Рассмотрены изменения Конституции после обретения независимости и с учетом мирового опыта, освещено их влияние на общественное и государственное строительство. В исследовании подчеркивается значение конституционных реформ во внедрении современных

демократических принципов и обеспечении прав человека. Статья посвящена изучению роли конституционных преобразований в совершенствовании системы государственного управления, укреплении правопорядка и развитии общества.

Ключевые слова: Конституция, этапы развития, правовая система, современные обновления, демократические принципы, права человека, конституционные реформы.

KIRISH

Konstitutsiya – davlatning oliy kuchga ega asosiy qonunidir¹. Konstitutsiya shaxsning konstitutsiyaviy huquq, erkinliklari va burchlari, davlat hokimiyati organlari tizimi, davlat hokimiyatini tashkil etish bilan bog'liq hamda shaxs, jamiyat, va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi². Shu bilan birga, konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash uchun xizmat qiladi. Har bir davlatning konstitutsiyasi uning tarixiy taraqqiyoti va madaniy xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak ham unda konstitutsiyalar davlatlarning huquqiy tizimlarini shakllantirishda muhim rol o'ynab kelganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, konstitutsiyalar zamon talabiga javob berishi va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda o'zgarishi lozimligini ham aytib o'tishimiz mumkin.

Konstitutsiyani tarix bilan bo'g'lab o'rganadigan bo'lsak, birinchi yozma konstitutsiya 1787-yilda AQShda qabul qilingan. U davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini o'zida aks ettirib, boshqa davlatlar uchun namunaviy hujjatga aylangan. Keyinchalik, Fransiyada 1791-yilda qabul qilingan konstitutsiya inqilobiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelib, inson huquqlari va erkinliklarini qonuniy asosda belgilab berdi. XIX asrda esa ko'plab davlatlarda milliy konstitutsiyalar paydo bo'lib, ular ijtimoiy adolat, demokratizm va fuqarolik huquqlarini rivojlantirishga qaratildi³.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham mustaqillik davrining muhim huquqiy hujjati sifatida tarix sahifasidan joy oldi deb aytish mumkin bo'lmaydi. 1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng, davlatning huquqiy asoslarini belgilovchi bosh hujjatni yaratish dolzarb masalaga aylandi va shu sababli, konstitutsiya loyihasi ustida bir yil davomida ishlanib, unda xalqaro huquqiy normalar va milliy qadriyatlar uyg'unlashgan holda yaratildi. Nihoyat, 1992-yil 8-dekabr kuni esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimimizni shakllantirishda, inson huquq va erkinliklarini kafolatlashda, shuningdek, mustaqil iqtisodiy va siyosiy siyosatni

¹ Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 37 bet.

² Konstitutsiyaviy huquq: darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 44 b.

³ Konstitutsiyaviy huquq: darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 19 b.

yuritishda muhim rol o'ynadi. Ushbu qonunda demokratik davlatning asosiy tamoyillari – qonun ustuvorligi, davlat hokimiyatining bo'linishi, fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini ta'minlash tamoyillari aks etgan va eng asosiy tamoyillardan bo'lmish inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tamoyili ham belgilab qo'yilgan. Shu sababli, konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish nafaqat huquqshunoslik, balki davlat boshqaruvi va xalqaro huquq uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu to'g'risida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan: "Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish – Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir"⁴. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ushbu maqola O'zbekiston Konstitutsiyasi va boshqa davlat konstitutsiyalarining tarixiy rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoritib beradi.

USULLAR

Ushbu maqola O'zbekiston Konstitutsiyasining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda adabiyotlar tahlili, tarixiy tahlil, qiyosiy tahlil va kontent-tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida konstitutsiyaviy hujjatlarning takomillashuvi, zamonaviy islohotlarning o'ziga xosligi hamda xalqaro tajribaga mosligi o'rganildi.

Adabiyotlar tahlili: Tadqiqotning dastlabki bosqichida O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va takomillashuvi bo'yicha ilmiy va amaliy adabiyotlar o'rganildi. Jumladan, konstitutsiyaviy huquq bo'yicha milliy va xalqaro mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar hamda konstitutsiyaviy huquq darsligi tahlil qilindi. Bu bosqichda Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartirishlarning tarixiy, huquqiy va ijtimoiy asoslari aniqlanib o'rganildi.

Tarixiy tahlil: Konstitutsiyaning rivojlanish jarayonini chuqur o'rganish uchun tarixiy tahlil usuli juda mos keladi. Shu sababli ham tarixiy tahlil qilish uslubini qo'llagan holda, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya loyihasining yaratilishi jarayoni, mustaqillik davridagi siyosiy va huquqiy islohotlar, shuningdek, o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o'zgarishlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy rivojlanish yo'li va Konstitutsiyaning zamonaviy talablar bilan moslashuvi aniqlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil: O'zbekiston Konstitutsiyasining zamonaviy bosqichlarini boshqa davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalari bilan qiyoslash orqali o'rganish tadqiqotning muhim

⁴ Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T. "O'zbekiston", 2019. 3-tom, 66-bet.

qismini tashkil etadi. Turli davlatlarning konstitutsiyalariga kiritilgan islohotlar, inson huquqlarini himoya qilish va davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha tajribalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil orqali O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan so'nggi o'zgartirishlarning xalqaro standartlarga mosligi va samaradorligi aniqlab berilgan.

Kontent-tahlil: Maqolada konstitutsiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihalari, ilmiy maqolalar va boshqa tegishli manbalar kontent-tahlil usuli orqali o'rganiladi. Shuningdek, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha hukumat va ekspertlar tomonidan berilgan ma'lumotlar, tahliliy sharhlar va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallar tahlil qilindi. Ushbu usul yangi islohotlarning mohiyatini tushunish va ularning davlat hayotiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot metodlari, yuqorida keltirilgan usullarni o'z ichiga olgan holda, Konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari va hozirgi kunga ta'sirini chuqur o'rganishga yordam beradi. Natijada, ushbu metodlar yordamida olingan ma'lumotlar Konstitutsiyamizning takomillashuvi va xalqaro standartlarga mos hujjat bo'lib rivojlanishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu qatorida, mazkur usullarni qo'llash orqali tadqiqotda O'zbekiston Konstitutsiyasining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy yangilanishlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar olishga erishildi. Bu ma'lumotlar konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyatini yanada chuqurroq anglash va ularning mamlakat huquqiy tizimidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida Konstitutsiyaga oid milliy adabiyotlarning cheklangani va konstitutsiyaviy islohotlarning nisbatan yangiligi tufayli ularning to'liq natijalari hali baholanmaganligini keltira olamiz. Shu sababli, tadqiqotda mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida dastlabki xulosalar chiqarilgan bo'lib, kelgusida ushbu mavzu bo'yicha kengroq tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etib qolinadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda Konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlari haqidagi ma'lumotlarni o'rganishga qaratilgan qiziqarli xulosalarni taqdim etdi. Ushbu natijalar O'zbekiston Konstitutsiyasining tarixiy rivojlanish yo'lini va zamonaviy sharoitda amalga oshirilgan yangilanishlar va o'zgartirishlarning ijtimoiy va siyosiy tizimga qanday ta'sir ko'rsatishini yoritadi.

Konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari:

Tadqiqotda O'zbekiston Konstitutsiyasining rivojlanishining asosiy bosqichlari aniqlangan:

1. Ilk qadamlar (1991-1992): O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, yangi

davlat tuzilmasi uchun yuridik asoslar yaratildi. Bu davrda O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

2. Birinchi o'zgartirishlar (1993-2000): Davlat boshqaruvi tizimining kuchayishi, demokratik prinsiplarning rivojlanishi va inson huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bir qator o'zgartirishlar amalga oshirildi.

3. Zamonaviy yangilanishlar (2000-2024): O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi va zamonaviy demokratik davlat qurish yo'lida muhim yangilanishlar boshlandi. Xalqaro huquq, fuqarolik huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, konstitutsion islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida amalga oshirilgan zamonaviy yangilanishlarning muhim jihatlari:

Inson huquqlarini himoya qilish. Konstitutsiyaga kiritilgan yangi o'zgarishlar orqali inson huquqlarining himoyasi yanada mustahkamlandi. Fuqarolarni himoya qilish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va demokratiya prinsiplarini kuchaytirishga qaratilgan yangi normativ asoslar yaratildi.

Fuqarolik jamiyati va erkinliklarni rivojlantirish. Yangi o'zgarishlar fuqarolik jamiyatining roli va mustahkamlanishini ko'zda tutgan bo'lib, fuqarolar uchun yangi erkinliklar va imkoniyatlar yaratdi.

Hukumatning javobgarligi va demokratizmni kuchaytirish. O'zbekiston hukumati va davlat idoralari ustidan demokratik nazoratni kuchaytirish, shuningdek, davlat boshqaruv tizimini oshkoralik tamoyili asosida yuritishga qaratilgan o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlar O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va huquqiy tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib kelgan. Bu o'zgarishlar davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, inson huquqlarini ta'minlash, siyosiy plyuralizmni rivojlantirish va demokratik islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy yangilanishlarning asosiy foydalari:

o Inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish: Fuqarolarni himoya qilish, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatda adolatni ta'minlash.

o Siyosiy islohotlar va demokratizmning kuchayishi: Konstitutsiyadagi o'zgarishlar orqali siyosiy erkinliklarning ko'payishi va davlat boshqaruv tizimida demokratizmning yanada oshishini aytib o'ta olamiz.

o Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash: Konstitutsiyadagi yangilanishlar O'zbekistonning xalqaro huquq va xalqaro tashkilotlar bilan yanada mustahkam aloqalar o'rnatishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning rivojlanishini davom ettirish uchun tavsiyalar:

- a) Inson huquqlari bo'yicha yangi mexanizmlar yaratish. Fuqarolarni himoya qilish va ularning huquqlarini ta'minlashni yanada mustahkamlash.
- b) Siyosiy islohotlar va demokratik tizimni chuqurlashtirish. Siyosiy jarayonlarni soddalashtirish, siyosiy tizimda ishonchni oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- c) Xalqaro normativ hujjatlarni o'rganish. Konstitutsiyadagi o'zgarishlarni xalqaro huquq va amaliyotga moslashtirish, global integratsiyaga yo'naltirilgan tashabbuslarni rivojlantirish.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda Konstitutsiyaning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlarni o'rganishning ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va tavsiyalar, Konstitutsiya sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi va bu natijalar tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqotda O'zbekiston Konstitutsiyasining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yangilanishlarga oid qiziqarli ma'lumotlar to'plandi. Aynan shu maqola uchun tadqiqot olib borilayotganda ko'plab olimlar va davlat arboblarning fikrlari va kitoblari o'rganildi hamda shunday shaxslardan biri bo'lgan birinchi prezidentimiz Islom Karimovning konstitutsiya haqida bildirgan fikrlari shunday bo'lgan: "Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q"⁵. O'zbekiston Konstitutsiyasining tarixiy o'zgarishlarini o'rganish bilan birga, boshqa davlatlarning Konstitutsiyalaridagi o'zgarishlar ham taqdim etildi. Tadqiqot, shu bilan birga, mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy-siyosiy ta'sirini tahlil qildi. Konstitutsiyaning yangilanishlari, inson huquqlarini ta'minlash, siyosiy tizimni modernizatsiya qilish va davlat boshqaruvini samarali qilishga qaratilganligi aniqlandi. Tadqiqotda, shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularning yechimlari ham muhokama qilindi. Ushbu masalalarni bartaraf etish uchun taqdim etilgan tavsiyalar, konstitutsiyaviy islohotlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar, O'zbekiston Konstitutsiyasining zamonaviy yangilanishlariga yangicha yondashuvlarni taqdim etadi. Xususan, inson huquqlarini mustahkamlash, siyosiy erkinliklarni kengaytirish, davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish va xalqaro huquq bilan uyg'unlashuvni ta'minlash kabi tavsiyalar tadqiqotda muhim o'rin tutadi.

⁵ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: "O'zbekiston", 1992. 37-bet.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati, Konstitutsiyaning rivojlanishi va zamonaviy yangilanishlarini o'rganish orqali huquqiy tizimdagi o'zgarishlar va yangilanishlar haqida yangi bilimlar kiritishdir. Tadqiqot natijalari, shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati sifatida esa O'zbekiston Konstitutsiyasini zamonaviylashtirish va demokratik islohotlarni amalga oshirishda foydali bo'lishi mumkinligini aytib o'ta olamiz.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

1. Konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy va siyosiy tizimga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish;
2. Turli mamlakatlarning konstitutsiyaviy islohotlar tajribalarini solishtirgan holda tahlil o'tkazish;
3. Konstitutsiya yangilanishlarida xalqaro normativ huquqning roli va uning ta'sirini tahlil qilish;
4. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni o'rganish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish.

XULOSA

Konstitutsiyalar davlat va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, ularning rivojlanish bosqichlari inson huquqlari va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga olib kelgan. Zamonaviy dunyoda konstitutsiyalarning yangilanishi global va milliy ehtiyojlarga moslashish jarayonining muhim qismidir. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tadqiqot O'zbekiston Konstitutsiyasining rivojlanish bosqichlarini va zamonaviy yangilanishlarini o'rganish orqali, huquqiy islohotlar va demokratik jarayonlarning ahamiyatini ko'rsatdi. Natijalarga ko'ra, konstitutsiyaviy islohotlar davlat boshqaruvini takomillashtirish, inson huquqlarini ta'minlash va adolatni kuchaytirish uchun zarurdir. Boshqa davlatlarning tajribasi esa huquqiy tizimlarni modernizatsiya qilishda foydali bo'lishi mumkin. Tadqiqotning yakuniy tavsiyalari kelajakda amalga oshiriladigan islohotlar uchun asos bo'lib, ularni muvaffaqiyatli bajarishda yordam beradi.

REFERENCES

1. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024. – 544 bet.
2. Konstitutsiyaviy huquq: darslik / Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 800 b.
3. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T. "O'zbekiston", 2019. 3-tom, 486-bet.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: “O‘zbekiston”, 1992. 320-bet.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasi-konstitutsiyasining-yaratilish-tarixi-va-ahamiyati>
6. Artificial Lawyer
7. <https://www.artificiallawyer.com/> - yuridik sohadagi barcha yangilik va tahlillar